

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Ped 78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**XURAMOV ILXOM PANJIYEVICH**

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA PROFESSIONAL  
TA'LIMDA IJTIMOYIY HAMKORLIKNI AMALGA OSHIRISH  
MEXANIZMI**

**13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**The contents of the abstract of doctor of philosophy (PhD)'s dissertation  
on pedagogical sciences**

**Xuramov Ilhom Panjiyevich**

Innovatsion yondashuv asosida professional ta'limda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish mexanizmi..... 5

**Хурамов Илхом Панджиевич**

Механизм реализации социального партнерства на основе инновационного подхода в профессиональном образовании ..... 23

**Khuramov Ilkhom Panjievich**

Is the mechanism for implementing social partnership in vocational education based on an innovative approach..... 45

**E'lonqilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 50

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Ped 78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**XURAMOV ILXOM PANJIYEVICH**

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA PROFESSIONAL  
TA'LIMDA IJTIMOYIY HAMKORLIKNI AMALGA OSHIRISH  
MEXANIZMI**

**13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Ped4431 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.ter.su.uz](http://www.ter.su.uz)) hamda Ziyonet axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich</b> pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Qodirov Qutlug'bek Bekmuradovich</b> pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent <b>Mirzayev Mutalib Jo'rayevich</b> pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Shahrisabz davlat pedagogika instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "10" 10 kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (376) 221-74-55; faks: (376) 221-71-17; e-mail: [termizedu@umail.uz](mailto:termizedu@umail.uz))

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (315 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz sh. Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (376) 221-74-55; faks: (376) 221-71-17; e-mail: [termizedu@umail.uz](mailto:termizedu@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «17» 09 da tarqatildi.  
(2025-yil «17» 09 dagi 315 raqamli registr bayonnomasi)



**M.X. Shomirzayev,**  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor.

**A.B. Narbayev,**  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.d., dotsent.

**U.B. Abdiyev**  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., dotsent.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim sohasida itimoiy hamkorlikni rivojlantiruvchi ta'lim jarayoniga yangi tendensiyalarni kiritaoladigan pedagogik kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Professional ta'limda ijtimoiy hamkorlikni innovatsion yondashuv asosida tashkil etishning asosiy tendensiyalaridan biri Butunjahon kasb-hunar va texnik ta'limni rivojlantirish masalalari yuzasidan "Global Strategy and Practice of High-Skilled Workforce Development" ("Yuqori malakali ishchi kuchini rivojlantirishning global strategiyasi va amaliyoti") konferensiyasi bo'lib o'tdi<sup>1</sup>. Tadbir doirasida dunyo tajribasini amaliy o'rganish va sanoat-ta'lim integratsiyasiga bag'ishlangan muhokamalar kasb-hunar ta'limida yangi yo'nalishlarni shakllantirish va amaliy modellariga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qildi.

Xalqaro miqyosda bugungi kunda professional ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida ta'lim muassasalari, ish beruvchilar, mehnat bozorining turli subyektlari, davlat va hududiy boshqaruv organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Xususan, Germaniyada dual ta'lim tizimi ("Dual system"), Finlandiyada "Ta'lim va innovatsiyalarni integratsiyalashgan klaster modeli", Janubiy Koreyada "Lifelong Vocational Education" modeli, Xitoyda "School-Enterprise Cooperation" – "Maktab-korxonalar hamkorligi" modeli, Avstraliyada faoliyat yuritayotgan kadrlar bo'yicha maslahat agentligi (Skills Australia) va shu kabi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlarda professional ta'lim muassasalari, ish beruvchilar va turli tashkilotlar o'rtasidagi yuqori darajadagi hamkorlik, professional ta'lim sohasining muvaffaqiyatli taraqqiyotini ta'minlashga a'lohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar ta'limi dasturlari ta'lim va ishlab chiqarish korxonalarida o'rtasida muhim bog'lovchi vosita bo'lib, ta'lim hamda kasbiy hamkorlikni mustahkamlash, professional ta'limni takomillashtirish zaruratini izohlaydi.

Respublikamizda so'nggi paytlar ta'limda ijtimoiy hamkorlikni integrativ mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rgangan holda amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida<sup>2</sup> "talabalarning ishiab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy bazani ishlab chiqish va rivojlantirib borish" masalasi dolzarbligi bilan ajralib turubdi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan nazariy bilimlarni amaliy jarayon bilan uzviy

---

<sup>1</sup> Ministry of Education of China, Chinese National Commission for UNESCO, & VeriMedia. 2024 World Vocational and Technical Education Development Conference: Global Strategy and Practice of High-Skilled Workforce Development. Tianjin, China.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 2019 yil 8 oktyabr

bog'lash va yosh avlod uchun ochiq, shaffof va sifatli ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash, o'qitishning barcha bosqichlarida chuqur bilim egallashlari uchun qulay muhitni yaratish iqtidorli yoshlarga doimiy etibor qaratishni ustivor vazifa etib belgilangan. Natijada, innovatsion yondashuvlar orqali kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy hamkorlik asosida professional ta'lim sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlash ustivor vazifa etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 apreldagi "Yoshlarning bandligiga ko'maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-61-son Farmoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 28 apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-54-son Qarori, va shu masalalarni hal etishga yo'naltirilgan me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Dissertatsiya ishining respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustivor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda professional ta'lim tizimini rivojlantirish mavzusiga oid bir qator olimlarimiz tamonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan jumladan Yu.S.Daminova "Professional ta'limda yosh o'qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligini takomillashtirish tizimi" p.f.f.d dis. avtoref – Chirchiq – 2023 – 48 b. xususida tadqiqot olib borgan, A.Yu.Umarov "Ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagogik kadrlar tayyorlashning integrativ mexanizmlarini takomillashtirish"<sup>4</sup> jarayonlarini tadqiq qilgan, Z.T.Raximov "Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligini

---

<sup>3</sup> Daminova Yu.S. Professional ta'limda yosh o'qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligini takomillashtirish tizimi p.f.f.d dis. avtoref – Chirchiq – 2023 – 48 b.

<sup>4</sup> Umarov A.Yu. Ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagogik kadrlar tayyorlashning integrativ mexanizmlarini takomillashtirish Ped.fan.dokt...dis. avtoref. – Toshkent: TDPU. 2023. – 64 b.

rivojlantirish texnologiyasi”<sup>5</sup> mazmunini yoritgan, M.F.To‘rayev “Bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchisining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish”<sup>6</sup> mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan hamda professional ta‘lim mazmuni, professional ta‘limda innovatsion yondashuvlar, bo‘lajak pedagoglarning mahoratini kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish masalalari bo‘yicha respublikamiz olimlari N.A.Muslimov, M.T.Mirsolieva, B.A.Nazarova, M.B.Urazova, O.A.Quysinov, Sh.S.Sharipov, N.N.Karimova, Sh.Pozilova<sup>7</sup> va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

MDH mamlakatlari olimlaridan kasb-hunar ta‘limini rivojlantirish, sifatini takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyani ta‘lim jarayoniga qo‘llash bo‘yicha O.A.Abdullina, S.Ya.Batishev, G.K.Selevko, Yu.K.Vasilev, V.V.Anisimov<sup>8</sup>larning ilmiy-tadqiqot ishlari o‘rganildi. Shuningdek, ta‘lim jarayonlarini integratsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish, o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga va innovatsion jarayonlarni loyihalashga maqsadli tayyorlash V.Slastenin, P.Tretyakov, T.I.Shamova, A.Kan-Kaliklar<sup>9</sup> tomonidan tadqiq etilgan. Kasb-hunar ta‘limida ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish muammolari ustida Rossiyalik olimlar A.A.Ribina, M.G.Kotovskaya, S.N.Chistyakova, I.M.Remorenko, V.Anisimov, V. Makeyevlar<sup>10</sup> ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Biroq mazkur tadqiqot ishlarida ko‘proq ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish, amalga oshirish doiralari va qonuniy-me‘yoriy jihatlari xususida so‘z boradi.

Xorijiy davlatlar olimlaridan kasb-hunar ta‘limida ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish muammolari ustida Ludger Deitmer, David Guile, Stephen Billett, Lars Svensson<sup>11</sup> kabi olimlar, innovatsion o‘zgarishlarni boshqarish,

---

<sup>5</sup> Raximov Z.T. Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarining o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi Ped.fan.dokt...dis. avtoref.– Toshkent – 2021 – 63 b.

<sup>6</sup> To‘rayev M.F. Bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchisining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish p.f.f.d dis.. avtoref.– Toshkent – 2022 50 b.

<sup>7</sup> Muslimov N.A. Kasb ta‘limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2007.; Mirsoliyeva M.T. Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... Dis. – T., BIMM, 2019. – 225 b.; Nazarova B.A. Pedagogika kollejlari bo‘lg‘usi o‘qituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash: Ped. fanl. n-i ... Dis. – T., 2009. B.170.b

<sup>8</sup> Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителей системы высшего педагогического образования. (Учебное пособие). – М.: Просвещение, 1990. - 140 с., Батышев С.Я. Профессиональная педагогика. -М.: Профессиональное образование, 1997. -511 б.,

<sup>9</sup> Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н.. Педагогика: Учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений -М.: Педагогика, 1997, С, Т.И. Ша-мовой. - М.: Академия, 2002., Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д.Педагогическое творчество: Библиотека учителя и воспитателя.-Москва, Педагогика, 1990-144 с

<sup>10</sup> Рыбина А.А. Социальное партнерство субъектов образовательного пространства с представителями различных сфер экономики и общественной жизни как важнейшее условие подготовки учащейся молодежи к социально-профессиональному самоопределению. 1998. – 85 с., Чистякова С. Н. О принципах профильного обучения и проблемах их реализации - Профильное обучение в условиях модернизации школьного образования. Сб. науч. трудов. М.: ИОСО РАО, 2003. - 32 с.,

<sup>11</sup> Deitmer, L. (2020). The dual system of vocational education and training in Germany – structure, problems and perspectives. *Journal of Vocational Education Research*, 45(2), 115-132., Guile, D. (2019). Workplace Learning and the Professionalisation of Vocational Education. *International Journal of Training and Development*, 23(3), 203-220., Billett, S. (2018). Workplace Learning: Conceptualising and Measuring Factors that Shape the Workplace Learning Environment. *Vocations and Learning*, 11(2), 245-265., Svensson, L. (2021).

o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va innovatsion jarayonlarni loyihalash yuzasidan Michael Fullan, Linda Darling-Hammond, Etienne Wenger, Andy Hargreaves, Pasi Sahlberg, Chris Dede<sup>12</sup> kabi tadqiqotchi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Innovatsion yondashuv asosida professional ta'limda ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kelajakdagi pedagogik faoliyatida hamkorlik ko'nikmalarini talabalik davridan shakllantirish masalalari yetarlicha o'rganilmaganligi tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan olly ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida 574099-EPP-1-2019-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli PAWER - "Hududlararo mobillikni yo'lga qo'yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta'minlash" (2019-2022-yy.) mavzusidagi xalqaro loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** professional ta'lim tizimida innovatsion yondashuv asosida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganish va ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

professional ta'limda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirishga yo'naltirilgan vertikal va gorizantal integratsiyalashuvni aniqlashtirish;

kasb-hunar maktablari, texnikum va oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbga yo'naltirishni tashkilly-ijrochilik, reflektiv-umumlashtiruvchi bosqichlarini takomillashtirish;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini kasbga tayyorlashda kuchli va zaif tomlarini, imkoniyat va tahdidlarni tahlil qilish omillari orqali jamoaviy hamkorlikda faoliyat yuritishini optimallashtirish;

professional ta'lim yo'nalishlarida ijtimoiy hamkorlikni amaliyotga yo'naltiruvchi o'quv faoliyatida talabalarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida innovatsion yondashuv asosida professional ta'limda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Termiz davlat universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti hamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetlaridan jami 259 nafar 60112400 - Professional ta'lim (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish) yo'nalishi talabalari ishtirok etgan.

---

Bridging the Gap: Challenges in Collaboration between Education and Work. Nordic Journal of Vocational Education and Training, 11(1), 52-70.

<sup>12</sup> Gessler, M. (2017). Learning at Work and Cooperation Between Learning Locations. European Journal of Education, 52(1), 20-32., Fullan, M. (2001). Leading in a culture of change. San Francisco, CA: Jossey-Bass., Darling-Hammond, L. (2005). Preparing teachers for a changing world: What teachers should learn and be able to do. San Francisco, CA: Jossey-Bass., Wenger, E. (1998). Communities of practice: Learning, meaning, and identity. Cambridge University Press., Hargreaves, A., & Fullan, M. (2012). Professional capital: Transforming teaching in every school. Teachers College Press., Sahlberg, P. (2011). Finnish lessons: What can the world learn from educational change in Finland? Teachers College Press.

**Tadqiqot predmetini** innovatsion yondashuv asosida professional ta'lim tizimida ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish jarayonini takomillashtirish bo'lib, uning mazmuni, shakl va metodlari hamda ta'limiy vositalari orqali belgilanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot davomida mavjud adabiyotlar tahlili, suhbat, kuzatish va anketa so'rovi kabi sotsiometrik usullardan foydalanildi. Shuningdek, modellashtirish, konstruksiyalash, ekspert bahosi hamda pedagogik tajriba o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar matematik-statistik usuliyar yordamida qayta ishlab, umumlashtirildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

professional ta'limda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirishga yo'naltirilgan vertikal va gorizantal integratsiyalashuvni senzitiv ta'sirining quyi va yuqori darajasi talabalarning o'quv-amaliy faoliyati orqali aniqlashtirilgan;

kasb-hunar maktablari, texnikum va oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbga yo'naltirishni tashkiliy-ijrochilik, refleksiv-umumlashtiruvchi bosqichlari o'quv va tadqiqotchilik faoliyatiga motivatsion yo'nalganlikning fanlararo integralligini rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini kasbga tayyorlashda kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyat va tahdidlarni tahlil qilish omillari orqali jamoaviy hamkorlikda faoliyat yuritishning bilish, fikrlash, tushunish, anglash kabi imkoniyatlariga muvofiq optimallashtirilgan;

professional ta'lim yo'nalishlarida ijtimoiy hamkorlikni amaliyotga yo'naltiruvchi o'quv faoliyatida talabalarning kasbiy kompetensiyasini real ishlab chiqarish sharoitida aqliy tafakkuri, fikr yuritish salohiyati kabi kasbiy qobiliyatlarini sinergetik moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amally natijalari.**

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida oliy va professional ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini, kasaba uyushmalari, mahalliy hokimiyat organlari hamda turli jamoat institutlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni inobatga olgan holda tashkil etish mexanizmlari asoslab berildi. Shuningdek, ish beruvchilarning amaliy ehtiyojlarini "Kasb ta'lim metodikasi" fanining integrativ dasturi ishlab chiqildi va o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlandi. Tadqiqot doirasida "Innovatsion yondashuv asosida professional ta'lim tizimi rahbarlarining tashkiliy boshqaruv faoliyatini takomillashtirish muammolari" mavzusida monografiya hamda "Professional ta'limda ijtimoiy hamkorlikning innovatsion yondashuvi" nomli o'quv-uslubiy qo'llanma tayyorlanib, nashr etildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Qo'llanilgan metod va yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, tajriba-sinov ishiari yakunlari matematik-statistik tahlil yordamida tasdiqlangani, ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalarining amaliyotda sinalgani hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ma'qullangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amally ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyat jihatidan, tadqiqot natijalari professional ta'lim tizimida ijtimoiy asosda tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi, ilmiy qarashlarni boyitadi, zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etishga ko'maklashadi

hamda mashgʻulotlarni shaxsga yoʻnaltirilgan tarzda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boʻlajak professional taʼlim oʻqituvchilarini tayyorlashning pedagogik tizimi DTS talablari, taʼlimning maqsad va mazmuni, nazariy-amaliy tayyorgarlik, didaktik jarayon, kasbiy sifatlarni shakllantirish hamda yakuniy davlat attestatsiyasi kabi komponentlarning oʻzaro ketma-ketligi asosida takomillashtirilgan. Innovatsion yondashuvlar orqali ularning professional taʼlimda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish mexanizmining samaradorligini oshirish, asosiy va yakunlovchi bosqichlar bilan uzviy bogʻlangan boʻlib, yuqori, oʻrta va past darajalardagi ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish mexanizmi oʻquv fanlari darajasiga moslashtirilgan. Shuningdek, boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchilarining innovatsion yondashuv asosida kelgusi kasbiy faoliyatida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish jarayoni “Kasb taʼlim metodikasi” fanini optimallashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda muammoli taʼlim (Problem-Based Learning), intellektual xarita (Mind Map), loyiha asosidagi taʼlim (Project-Based Learning), SWOT tahlil, reflektiv kundalik yuritish kabi pedagogik texnologiyalar qoʻllanishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Innovatsion yondashuv asosida professional taʼlimda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish mexanizmini rivojlantirish boʻyicha tadqiqot natijalari asosida:

professional taʼlimda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan vertikal va gorizantal integratsiyalashuvni sezitiv taʼsirining quyi va yuqori darajasi talabalarning oʻquv- amaliy faoliyati orqali aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalaridan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali DMda eʼfira uzatilgan “Taʼlim va taraqqiyot”, “Najot bilimda” “Oʻzbekiston yoshlari” nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 11-sentyabrdagi 05-09-1423-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, boʻlajak professional taʼlim oʻqituvchilarini tayyorlash jarayonining ijtimoiy hamkorlikka oid koʻnikmalarini takomillashuvi taʼminlangan;

kasb-hunar maktablari, texnikum va oliy taʼlim muassasalari talabalarini kasbga yoʻnaltirishni tashkiliy-ijrochilik, refleksiv-umumlashtiruvchi bosqichlari oʻquv va tadqiqotchilik faoliyatiga motivatsion yoʻnalganlikning fanlararo integralligini rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalaridan “60112400-Professional taʼlim” yoʻnalishlari malaka talabini ishiab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy taʼlimni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 16-apreldagi 02/01-01-134 -son maʼlumotnomasi). Natijada, innovatsion yondashuvlar asosida boʻlajak professional taʼlim oʻqituvchilarini tayyorlash tizimining takomillashuviga erishilgan;

boʻlajak professional taʼlim oʻqituvchilarini kasbga tayyorlashda kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyat va tahdidlarni tahlil qilish omillari orqali jamoaviy hamkorlikda faoliyat yuritishning bilish, fikrlash, tushunish, anglash kabi imkoniyatlariga muvofiq optimallashtirishga oid taklif va tavsiyalaridan “Termiz

davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq Yevropa Ittifoqning ERASMUS+ dasturi doirasida 2022-2025 yiliarda bajarilgan 574099-EPP-1-EPPKA2-CBHE-SR raqamli PAWER – “Hududlararo mobillikni yo‘lga qo‘yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta‘minlash” mavzusidagi xalqaro loyiha bajarilishida foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2025-yil 13-sentyabrdagi №02/12-3417 raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada, professional ta‘lim yo‘nalishida bo‘lajak o‘qituvchilarini innovatsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning kognitiv-funksional modeli takomillashtirilgan; professional ta‘lim yo‘nalishlarida ijtimoiy hamkorlikni amaliyotga yo‘naltiruvchi o‘quv faoliyatida talabalarining kasbiy kompetensiyasini real ishlab chiqarish sharoitida aqliy tafakkuri, fikr yuritish salohiyati kabi kasbiy qobiliyatlarini sinergetik moslashtirish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalaridan “Inno” (2024-2025) biznes inkubator va akselerator dasturida innovatsion amaliy loyihalarni shuningdek startap loyihalarda iqtidorli yoshiarni o‘qitish uchun amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston respublikasi innovatsion rivojlantirish agentligi huzuridagi Termiz yoshiar texnoparki davlat muassasasining 2025 - yil 12 - maydagi № 31-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada 60112400 - Professional ta‘lim yo‘nalishlari talabalarida “Kasb ta‘lim metodikasi” fani orqali optimallashtirish hamda mashg‘ulotlarda muammoli ta‘lim (Problem-Based Learning), Mind Map - intellektual xarita metodi, Loyiha asosida ta‘lim (Project-based learning), SWOT tahlil metodi, Reflektiv kundalik yuritish metodi kabi texnologiyalari ishlab chiqilgan va effektiv jihatdan samarali qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xorijiy 2 ta xalqaro hamda 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumahlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 29 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 17 ta, shundan 8 ta mahalliy va 9 ta xorijiy jurnallarda, 1 ta o‘quv uslubiy qo‘llanma, 1 ta monografiya, 1 ta mualliflik guvohnomalar olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 130 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqot metodlari, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi va amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, nazariy va amaliy ahamiyati, e‘lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion yondashuv asosida professional ta’limda ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda professional ta’lim yo‘nalishlari tizimining rivojlanishi tadqiqotlar va uslubiy ishiar tahlil qillnib, ijtimoiy hamkorlikning tarixi, mohiyati, rivojlanishi va uning psixologik-pedagogik jihatiari hamda professional ta’lim sohasida ijtimoiy hamkorlikning mavjud holati va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan.


Respublikada iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilayotgan innovatsion texnologik jarayonlar o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlovchi mutlaqo yangi kasb-hunar ta’limi muassasalari tarmog‘ini shakllantirishni talab etmoqda. Albatta, professional ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, tizimda jiddiy va katta ko‘lamdagi tarkibiy o‘zgarishiarni amalga oshirish, mehnat bozorining talablariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, sobiq tizimdagi muammolarni bartaraf etish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda kasbiy ta’limning rivojlanish tarixi 1960-yillardan boshlanadi. Yuqoridagi davrlarga nazar tashiasak, dastlab barcha yirik korxonalar huzurida, fabrika-zavodlarda o‘quvchilar uchun kasbga o‘rgatish kurslari va sanoat-texnika o‘quv yurtlari tashkil etia boshlangan.

Xalqaro ta’lim tizimi bilan O‘zbekiston ta’lim tizimining o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlash orqali bitiruvchilarning malakalari xalqaro mehnat bozorida ham tan olinishiga erishiladi. Germaniya, Shvetsariya, Koreya, Turkiya va Xitoy hamda YUNESKO, Britaniya Kengashi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa ta’lim fondi, Turkiya hamkorlik agentii, Xitoyning Universitetlar uyushmasi kabi qator xorijiy davlat va tashkilotlardan 214 nafar nufuzli xalqaro ekspertlar jalb etildi va ulardan zarur xulosalar olindi. Kasb-hunar ta’limi tarmoq standartlarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirishga doir bir qator fundamental taqiqotlar ham olib borilgan.

Ijtimoiy hamkorlik bugungi kunda ommalashgan tushunchalardan biri sanaladi. Ushbu tushuncha bilan rivojlanish tarixiga murojaat qiladigan bo‘lsak, u birinchi jahon urushidan keyin paydo bo‘lganligi o‘rganilgan manbalarda e’tirof etiladi. Uning g‘oyaviy asosini ijtimoiy islohotlarga asos sifatida xizmat qilgan xorijiy olimlardan Feyerbaxning tarixiy jarayon regulyatori sifatida XIX asrda yetakchi o‘rin tutgan konsepsiyasi, L.Blan va P.Prudoning “Munosabatlarni uyg‘unlashtirish” konsepsiyasi, va boshqa taraqqiyotning ijtimoiy-demokratik nazariyalari hisoblanadi. Ijtimoiy hamkorlik hech bo‘lmaganda erishib bo‘lmaslik tamoylliga qiziqishlar asosida tomonlarning munosabatlari va munosabatlar birligiga ko‘ra manfaatlari uchun asoslanadi. Ammo, manfaatlarni yagona jamoaviy manfaatlarga birlashtirish qiyin, ko‘proq imkonsiz holatdir. Professional ta’lim tizimi sohasida muayyan Oliy ta’lim, ishlab chiqarish va mahalliy hokimiyat inistitullari bilan ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishni, kasbiy ta’lim berish tizimining muhit o‘zgarishlariga muvaffaqiyatli moslashuvidan ajratib olib qarab bo‘lmaydi.

Bugungi kunda bizning jamiyatimiz o‘zining kuchi va imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqaruvchi ijodkor kadrlarga zarurat sezmoqda. Shuningdek, ijtimoiy va moddiy ishlab chiqarish sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash bilan bir




**1-rasm. Ta'lim klasteri sxemasi**

**Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash** – bu pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, amaliyot davomida kasbiy muammolarni hal qila olishni o'rgatish, o'qituvchilik faoliyatining metodik, etik va innovatsion jihadlarini o'zlashtirish. Ushbu zamonaviy yondashuvlar mazmuniqa quyidagilar kiradi (2-rasm):

qatorida insonlarga kasb-hunar tanlashlariga ham yordam ko'rsatish lozim. Mehnat bozoridagi vaziyat, davlat va jamiyat taqdiri bugungi yoshlarning, xususan, o'quvchilar, o'spirinlar qanchalik darajada kasbni to'g'ri tanlayotganligiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu tufayli bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida insonni o'z imkoniyatiga mos kasbga yo'naltirish, aniq faoliyat yo'nalishiga yo'naltirish va unga muvofiq shaxsni kamol toptirish zarur bo'lib qolmoqda.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion yondashuv asosida professional ta'limda ijtimoiy hamkorlik va kadrlar tayyorlashning pedagogik mexanizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, ta'lim klasteri asosida bo'lajak o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid zamonaviy yondashuvlar mazmunini yoritilib, professional ta'limda innovatsion yondashuv orqali bo'lajak o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning kognitiv modeli takomillashtirilgan va bo'lajak o'quvchilarni ijtimoiy hamkorlik asosida professional ta'lim sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlashning integrativ mexanizmi ishlab chiqilgan.

**Ta'lim klasteri** (education cluster) – bu ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga, o'quvchilar va talabalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirishga, zamonaviy, amaliyotga yaqin kadrlar tayyorlashga qaratilgan yangicha tashkil etish shaklidir. Uning asosiy maqsadi – zamonaviy mehnat bozoriga mos, raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi kadrlar tayyorlashdir. (1-rasm):




## 2-rasm. O'qituvchilik faoliyatiga kirishga doir innovatsion yondashuvlar

Belgilangan vazifalar doirasida kasbiy ta'limda kadrlar tayyorlash masalasi biz tadqiq qilayotgan mavzu yuzasidan bevosita bog'langan. Ushbu jihatlarni nazarda tutgan holda, biz "Professional ta'limda innovatsion yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning kognitiv-funksional modeli"ni takomillashtirdik.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kognitiv-funksional modelni takomillashtirish ta'lim jarayoniga tizimli va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo qiladi. Modelni takomillashtirishda ilmiy-nazariy asoslar, tarkibiy-komponent tizimining zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqilishi, o'quv-metodik ta'minotning amaliyotga yo'naltirilganligi va model samaradorligini tajriba-sinov asosida validatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu yondashuv natijasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash sifati yanada oshiriladi.

Professional ta'limda innovatsion yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning kognitiv-funksional modelining maqsadi – innovatsion yondashuv orqali professional ta'lim sharoitida o'qituvchilarning kognitiv va funksional (yoki amaliy) ko'nikmalarini rivojlantirish o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash. Bu esa o'z navbatida, ularni zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat ko'rsatishga tayyorlashni ta'minlashi kerak. Kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish orqali bo'lajak o'qituvchilarda ma'lumotlarni tahlil qilish, kritik fikrlash, kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish kabi kriteriyalar rivojlanadi.



3-rasm. Professional ta'limda innovatsion yondashuv orgali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning kognitiv-funksional modeli

Funksional ko'nikmalarni rivojlantirish orqali esa pedagogik strategiyalar, sinf menejmenti, texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlariga javob berishdek xususiyatlari rivojlanib boradi.

Modelning texnologik komponenti professional ta'limda innovatsion yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik shart-sharoitlar, metodlar, ularga ta'sir ko'rsatuvchi shakllar, vositalarni tanlab olishni, shuningdek kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish shartlarini belgilaydi.

#### **Kognitiv (bilimga asoslangan) metodlar:**

Muammoli ta'lim (Problem Based Learning) – darsda muammoli savollar orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish. Keys study texnologiyasi (Case-study technology) – real hayotdagi pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish. Intellektual xarita (Mind Map) – murakkab tushunchalarni vizual tarzda ko'rsatish.

#### **Funksional (amaliy) metodlar:**

Loyiha asosida ta'lim (Project-based learning) – talabalarni amaliy faoliyat orqali o'rgatish.

#### **Reflektiv (o'z-o'zini baholash) metodlar:**

Reflektiv kundalik – talaba har bir darsdan so'ng o'z fikr va tajribalarini yozib boradi; SWOT tahlil – o'zining kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyat va tahdidlarni tahlil qilish; "O'z-o'zini baholash varaqalari" – konkret mezonlar asosida o'z faoliyatini baholash.


#### **Innovatsion metodlar:**

Biz tatqiqot ishimiz doirasida quydagi "Integratsiyalashgan hamkorlik metodi (IHM)" va "Kollektiv innovatsion hamkorlik metodi (KIHM-5)" metodlarini ishlab chiqdik.

Bu metodlarni kombinatsiyalab qo'llash (masalan, muammo asosidagi loyiha refleksiya) o'qituvchilarni chuqur o'zlashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yechim topishga yo'naltiradi.

Nazorat-tahlil komponenti professional ta'limda innovatsion yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni natijasini tavsiflaydi. Innovatsion yondashuv asosida o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash indikatorlarini aniqlash, o'qituvchilarning kasbiy tayyorligida aniqlanadi. Pedagogik kasbiy tayyorlikning tuzilmasi o'zida, miqdoriy ifodaga ega ko'rsatgichiarni, shuningdek o'qituvchilarning kasbiy faoliyatni egallashini anglatuvchi kompleks tashxis qo'yishni nazarda tutuvchi turli xil darajalarni birlashtiradi.

Integrativ yondashuv, pedagogik jarayonni tahlil qilish va amaliyotga tadbiq etishda, ta'limning barcha komponentlarini (psixologiya, metodika, kommunikatsiya, texnologiyalar va ijtimoiy omillar) birlashtiradi. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faolligini va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning kasbiy kompetensiyalarini nafaqat akademik bilimlar bilan, balki ijtimoiy ko'nikmalar, etika, va didaktik ko'nikmalar bilan ham boyitadi. Ijtimoiy hamkorlik asosidagi integrativ mexanizmning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ta'lim jarayonida turli elementlar o'rtasida integratsiya zarur. Bular (4 -rasm):



**4-rasm. Ijtimoiy hamkorlik asosidagi integrativ mexanizmning elementlari**

### **Ijtimoiy hamkorlikning pedagogik natijalari**

O'qituvchilarning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi. Ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash, o'quvchilar bilan o'zaro ishonch va hurmat asosida ishlashni o'rgatadi. O'quvchilarning o'zaro yordam va hamkorlik muhitida rivojlanishiga turtki beradi.

Ijtimoiy hamkorlik asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda samarali integrativ mexanizm bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat professional jihatdan, balki ijtimoiy mas'uliyat va insonparvarlik nuqtai nazaridan ham yuqori darajaga olib chiqadi. Bu orqali o'qituvchilar jamiyatda o'zining ijtimoiy rolini to'g'ri anglab, ta'lim tizimining rivojiga o'z hissalarini qo'shadilar.

Innovatsion yondashuv asosida o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash indikatorlari – bu o'qituvchining zamonaviy, innovatsion kompetensiyalarini aniqlash, o'lchash va baholash uchun ishlatiladigan aniq mezonlardir.

1- jadval

**Innovatsion yondashuv asosida o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash indikatorlar jadvali**

<b>№</b>	<b>Indikator nomi</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Kutiladigan natijalar</b>
1	Pedagogik innovatsiyalarni qo'llash	O'qituvchining innovatsion ta'lim texnologiyalari, yangicha metodik yondashuvlarni dars jarayonida samarali qo'llay olishi.	Dars metodikasida yangi metodlardan foydalanish misol uchun, muammoli o'qitish – PBL. Dars ishlanmalarida innovatsion metodik modellar mavjudligi va ularni qo'llash	O'qituvchi innovatsion metodlarni amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarning chuqur bilim olishini ta'minlaydi, yangilikka ochiq va raqobatbardosh pedagog shakllanadi.
2	Raqamli savodxonlik	O'qituvchining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonida va tashkiliy ishlarida	Zoom, interaktiv doska, test tizimlaridan foydalanish ko'nikmalari, raqamli kontentlar yaratish qobiliyatini shakllantirish	O'qituvchi raqamli muhitda erkin ishlaydigan, masofaviy va aralash ta'lim shakllarini samarali olib boradigan

		faol va samarali foydalanish qobiliyati.		zamonaviy pedagogga aylanadi.
3	Ijodkorlik va innovatsion fikrlash	O'qituvchining yangilik yaratish, mualliflik metodik ishlanmalar tayyorlash va kreativ ta'lim loyihalarini amalga oshirish qobiliyati.	Mualliflik dars ishlanmalari va metodik qo'llanmalar ishlab chiqishi. Kreativ dars ssenariylari yaratishl. O'zining innovatsion loyihalarini yoki g'oyalari taqdim etishi (seminarlar, grantlar uchun).	Mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega, pedagogik innovatsiyalarni ishiab chiqadigan ilg'or o'qituvchi shakllanadi.
4	Kasbiy refleksiya	O'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali kasbiy rivojlanishni amalga oshirish qobiliyati.	Dars tahlillari va o'z-o'zini baholash jurnali yuritishl. O'z ustida ishlash bo'yicha shaxsiy rivojlanish rejasi tuzishl. Tashqi monitoring natijalari asosida tahlil va xulosalar chiqarishi. Darsni tahlil qilish, o'z ustida ishlash rejasini tuzish	O'z faoliyatini tahlil qiladigan, uzluksiz o'zini rivojlantiradigan, mas'uliyatli va muvozanatli pedagog shakllanadi.
5	Ijtimoiy hamkorlik	O'qituvchining professional ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini, mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faol ishlashl.	Tashqi tashkilotlar (korxonalar, hokimiyat, NNTlar) bilan hamkorlik loyihalarida ishtiroki. Seminarlar, master-klasslar, kasbiy forumlarda ishtirok etish. O'quvchilar uchun ijtimoiy loyiha va tadbirlarni tashkil etishi.	Ijtimoiy jihatdan faol, tarmoqda o'z o'rniga ega, ta'lim va ishiab chiqarish o'rtasida ko'priklar bo'la oladigan pedagog shakllanadi.
6	Monitoring va samara dorhki	O'qituvchining o'quvchilarning ta'lim natijalarini tahlil qilish, baholash natijalari asosida o'z metodikasini takomillashtirib borish qobiliyati.	O'quvchilarning yutuqlarini monitoring qilish (diagnostika, formativ va summativ baholash natijalari asosida). O'z metodikasining samaradorligi bo'yicha hujjatli tahlil va hisobot tayyorlashi. Darsda qo'llangan metodlarning o'quvchi natijalariga ta'sirini tahlil qilish.	Metodik faoliyatining samaradorligini isbotlay oladigan, maqsadli monitoring olib boradigan va natijaga yo'naltirilgan o'qituvchi shakllanadi.

